



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 66 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI

Erkayev Nodir Xudayberdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0009-3286-4034

Annotatsiya: Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan hamda soliq bazasining shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalarga asoslanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, budget siyosati, budget, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Abstract: Studying the administration of value-added tax in our country is also related to the improvement of value-added tax. The article analyzes the specific features of calculating the value-added tax base, some complications and problems in its determination, and focuses on issues of improving the formation of the tax base. In addition, based on the results of the changes and additions made in determining and calculating the value-added tax base, appropriate conclusions were formed and recommendations were developed.

Key words: value added, value added tax base, tax, budget policy, budget, tax administration, tax potential, regulatory analysis, tax burden, tax reporting, tax revenues, tax benefits.

Аннотация: Изучение администрирования налога на добавленную стоимость в нашей стране также связано с совершенствованием налога на добавленную стоимость. В статье анализируются особенности исчисления налоговой базы по налогу на добавленную стоимость, некоторые сложности и проблемы при ее определении, а также уделяется внимание вопросам совершенствования формирования налоговой базы. Кроме того, по результатам внесенных изменений и дополнений в определение и исчисление налоговой базы по налогу на добавленную стоимость сформированы соответствующие выводы и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: добавленная стоимость, налоговая база по налогу на добавленную стоимость, налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, налоговая нагрузка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan mamlakat sifatida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda QQS ma'muriyati sohasida o'ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qilmoqda. O'zbekistonda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tartibi va QQS ma'muriyatining o'ziga xos jihatlari haqida umumiy ma'lumot berish orqali mamlakatda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va QQS ma'muriyatiga bo'lgan yondashuvi raqamlashtirish hamda xalqaro savdodagi global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu esa O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarning o'ziga xos jihatlari va bu jarayon oqibatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABI YOTLAR SHARHI

Rus iqtisodiy lug'atida QQS quyidagicha aniqlangan: "Korxonada tovar va xizmatlar sotishdan olinadigan tushumlar hamda tashqi bozordagi boshqa ishlab chiqaruvchilardan olingan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar narxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan ushbu korxonaning qiymatini oshiruvchi miqdordan soliq undiriladi" (Rayzberg, 2008).

Bir-biriga yaqin fikrlar bilan mamlakat qonunchiligida belgilangan ta'riflarni qo'llab-quvvatlagan olimlardan Polyak va Romanovskiylarning (2008) fikricha: "Qo'shilgan qiymat solig'i – ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida yaratilgan va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan ishlab chiqarish hamda aylanma mablag'larga sarflangan moddiy xarajatlar qiymati sifatida aniqlangan qo'shimcha qiymatning bir qismini budgetga olish shaklidir".

Toshmatov (2012): "Qo'shilgan qiymat solig'i – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlarning bozor narxiga nisbatan hisoblangan bilvosita soliqdir", – deya ta'riflagan.

Pavlova va Dorojkolarning (2014) fikricha: "Agar QQSning soliq stavkalari kamaytirilsa, unda budget daromadlari sezilarli ravishda kamayadi, bu esa mablag'lar taqsimlanishining ko'payishiga olib keladi. Boshqa tomondan, agar ta'riflar qayta ko'rib chiqilsa, ko'pchilik tashkilotlar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni kuchaytiradi. Bunga yo'l qo'yish mumkin emas, chunki davlat budjeti kamroq moliyaviy resurslarga ega bo'ladi".

Iqtisodiy adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini «yevropacha soliq» deb ham atashadi (Romanovskiy, Vrublevskeya, 2007).

Qo'shilgan qiymat solig'i fransuz iqtisodchisi Moris Lore nomi bilan bog'liq bo'lib, 1954-yilda Kot-d'Ivuar fransuz koloniyasida yangi soliq sifatida sinovdan o'tkazilgan, 1958-yilda esa Fransiya joriy etilgan. Keyinchalik Yevropaning barcha mamlakatlariga 1972-yil oxirigacha o'z hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun QQSni joriy etish bo'yicha buyurtma berilgan. Hozirgi kunda 137 ta mamlakatda QQS joriy qilingan.

Mohammad Alizadeh va Masoume Motallabilar (2016) qo'shilgan qiymat solig'i va davlat xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini qisqartirish, natijada QQS stavkasini ham pasaytirishni ilgari suradi.

Sabine Freyzer "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat" (2006) nomli tadqiqotida O'zbekistonda soliq ma'muriyatini isloh qilishning umumiy ko'rinishini beradi hamda soliq yig'ish mexanizmlarini takomillashtirishning muammolari va imkoniyatlarini yoritadi. Muallif soliqlarni undirish jarayonini soliq to'lovchilarni o'qitish va tushuntirish ishlarini yaxshilash, shaffoflik va mas'uliyatni oshirish, soliq ma'muriyati tizimini modernizatsiya qilish orqali yaxshilash mumkinligini taklif qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorijiy tajribasini o'rganish uchun ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlili, shuningdek rivojlangan davlatlarning statistik ma'lumotlari solishtirma-tahliliy usul orqali qo'llanildi. To'plangan ma'lumotlar deduktiv va induktiv yondashuv asosida umumlashtirilib, ilg'or tajribalarning samaradorlik ko'rsatkichlari orqali solishtirildi va tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida aholi bandligini ta'minlash, uning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, shu jarayonda soliq yukini pasaytirishga atroflicha yondashilmoqda. Shu ma'noda, soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlari doirasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha bir qator muhim yangiliklar joriy etilgan hamda bu borada xorij tajribasi o'rganilgan.

ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) buxgalterlik bo'yicha yetakchi xalqaro tashkilot bo'lib, 178 mamlakatdagi moliya, buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislarini birlashtirgan. Ushbu tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, 18-rasmda dunyo bo'yicha 2016-yilda bu ko'rsatkich 21,39 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil prognozlariga muvofiq 26,6 foizga qadar o'sishi kutilmoqda. Nigeriya esa yashirin iqtisodiyoti eng yuqori bo'lgan davlat sifatida qayd etilgan.(1-rasm)



1-rasm. Yashirin iqtisodiyotning xorijiy davlatlar YaIM ning tarkibidagi miqdori (foizda)¹.

Mazkur 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda ACCA tashkiloti Rossiyada norasmiy sektor ulushini YaIMning 39,07 foizini (yoki 33,55 trillion rubl) deb baholagan bo'lsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich 7,86 foiz (yoki 23,2 trillion yena, ya'ni 190 milliard dollar) ni tashkil etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, 2025-yilga borib, Yaponiyada o'sish kuzatiladi, ammo Rossiyada ulush o'zgarishsiz qoladi – YaIMning taxminan 39,3 foizi darajasida. "Rossiyadagi yashirin iqtisodiyot eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, jahon o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 84 foizga yuqori", – deydi ACCA biznes-tahlil bo'limi rahbari Fey Chua².

Ilmiy ish doirasida chet davlatlarning soliq tizimida QQS ma'murchiligi o'rganilib, samaradorlik ko'rsatkichlari va bu natijalarning amaliyotga joriy etilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, bugungi kunda yuqori rivojlangan Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimi va QQS ma'murchiligining yuritilishi chuqur o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga oid yangiliklarni amaliyotga joriy etish yuzasidan ilmiy ish yakunida takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2023-yil 18-oktabr kuni "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining 10 yilligi nishonlanib, iqtisodiy hamkorlik va soliq ma'murchiligida malaka almashinish borasidagi sa'y-harakatlar o'z tasdig'ini topib, ko'plab yangiliklar amaliyotga joriy etildi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi – 1,4 milliard aholiga ega, 56 ta etnik guruhdan iborat, buddist, musulmon hamda xristian dinlariga e'tiqod qiluvchi, 9,6 million km² maydonga ega, Osiyo qit'asida joylashgan yirik davlatlardan biri. Poytaxti Pekin (Beyjing) shahri bo'lib, Xitoy maydoni bo'yicha Rossiya va Kanadadan keyin dunyodagi uchinchi yirik davlatdir. U 14 ta davlat bilan o'zaro chegaradosh bo'lib, ulardan 8 tasi bilan dengiz orqali chegaradosh. Aholisining 92 foizi Xitoylik va Xan etnik guruhiga mansub.

Xitoy sotsialistik davlat bo'lib, Kommunistik-Sotsial Partiya asosiy partiya hisoblanadi. 1978-yilga qadar ushbu davlat yopiq davlat hisoblangan, ammo shu yildan ochiqlik siyosatini amalga oshirishni boshlagan. 2001-yilda Xitoy Xalqaro Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lgan. Dunyoning 500 ta yirik kompaniyasining 490 tasi Xitoyga investitsiya kiritgan bo'lib, bu iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy Xalq Respublikasi rivojlanish tarixiga ko'ra:

1979-yilda dastlab tajriba tariqasida QQS joriy qilingan.

¹ Теневой сектор будет расти вместе с ВВП. Вадим Вислогузов. 14.07.2017 г <http://predprinimateli.kurganobl.ru/?p=2517>

² Теневой сектор будет расти вместе с ВВП. Вадим Вислогузов. 14.07.2017 г <http://predprinimateli.kurganobl.ru/?p=2517>



1994-yilda QQS soliq tushumi sifatida e'tirof etilgan.

2009-yilda tadbirkorlik maqsadida foydalaniladigan ko'char mulklar (yangi xarid qilingan uskunalar) uchun to'langan QQS summasi hisobga olinishi yuzasidan qonun ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

2013-yilda QQS stavkalari 17, 13, 11 foiz qilib belgilangan va ayrim tajriba loyihalarida biznesga soliqlar o'rniga 6 foiz qo'llanilgan.

2016-yilda biznes soliqlari to'laqonli QQS bilan almashtirilgan va yangidan yaratilgan ko'chmas mulk qiymatidagi QQS hisobga olinishi belgilangan.

2017-yilda QQS stavkalari tarkibi soddalashtirilib, 17, 11 va 6 foiz miqdorlari amalda qoldirilgan.

2018-yilda ayrim stavkalar pasaytirilib, 16, 10 va 6 foiz belgilangan, shuningdek, ayrim tarmoqlarda soliq imtiyozlari saqlab qolingan.

2019-yilda ko'chmas mulk xaridi uchun to'langan QQS bir yo'la hisobga olinadigan bo'lib, stavkalar yana pasaytirilib, 13, 9 va 6 foiz miqdorida belgilangan. QQS o'rnini qoplashning oddiy tizimi joriy etilgan.

2022-yilda QQS o'rnini qoplashning keng qamrovli tizimi amalda qo'llanila boshlangan.

Xitoy Xalq Respublikasining QQS ma'murchiligi haqida keltirilgan faktlar va ma'lumotlarga ko'ra, QQS to'lovchilar va hisobotlarda tovarlarni realizatsiya qiluvchi, qayta ishlash, ta'mirlash va mehnat xizmatlarini ko'rsatish, nomoddiy aktivlarni va ko'chmas mulkni sotuvchi, shuningdek, tovarlarni import qiluvchi barcha soliq to'lovchilar QQS to'lovchisi hisoblanadi. Soliq to'lovchilar toifasiga korxonalar, ma'muriy birliklar, davlat muassasalari, harbiy qismlar, ijtimoiy tashkilotlar va boshqa subyektlar kiradi.

QQS to'lovchilar tovar aylanmasi hamda hisobga olish imkoniyatlariga qarab umumiy hamda kichik (small-scale) QQS to'lovchilarga bo'linadi. Kichik QQS to'lovchilarning yillik tovar aylanmasi 5 million yuan (8,0 milliard so'm)dan oshib ketgan taqdirda, ular umumiy QQS to'lovchi sifatida qayta ro'yxatdan o'tish uchun ariza taqdim etishlari lozim.

Umumiy soliq to'lovchilar soliq hisobotlarini oylik topshiradi va to'laydi. Istisno tariqasida banklar, moliya tashkilotlari, ishonch va investitsiya kompaniyalari, kredit kooperativlari, shuningdek, Moliya vazirligi va Davlat soliq boshqarmasi tomonidan vakolat berilgan boshqa soliq to'lovchilar choraklik hisobot topshirishlari mumkin.

Kichik soliq to'lovchilar hisobotlarni har choraklik taqdim etadi. Biroq, ixtiyoriy tartibda bu korxonalar ham har oyda hisobot taqdim etishlari mumkin. Ular hisobot taqdim etish tartibini yil boshida tanlashlari kerak va yil davomida o'zgartirish mumkin emas.

Taqdim etilgan hisobot soliq organlarining avtomatlashtirilgan tizimlari orqali quyidagilar bilan taqqoslanadi (tekshiriladi):

Umumiy soliq to'lovchilar va kichik soliq to'lovchilar tomonidan chiqarilgan QQS hisobvaraqlari;

Umumiy soliq to'lovchilar tomonidan olingan chegirma sertifikatlari;

Soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlarning davlat g'aznasiga o'tkazilganligi;

Imtiyozli QQS bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar;

QQS hisobotini solishtirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Soliq hisobotlari ma'lumotlar bazasidagi mavjud ma'lumotlar bilan taqqoslanganda tafovutlar aniqlanmasa, dastur avtomatik ravishda soliq nazorati mexanizmini (tax control equipment) qulfdan chiqaradi. Bu esa korxonaga EXF rasmiylashtirishni davom ettirish imkoniyatini beradi.

Agar hisobotlarda kamchilik aniqlansa, "Golden Tax Project Phase III Core Collection and Management System" tizimi hisobotni tasdiqlashni rad etadi hamda nomuvofiq ma'lumotlarni tekshirish va hisobotni qayta taqdim etish uchun soliq to'lovchiga qaytaradi. Soliq to'lovchi hisobotdagi ma'lumotlar to'g'riligini tasdiqlasa, tizim taqqoslash natijasidan qat'i nazar, hisobotni saqlab qoladi hamda elektron hisobvara-q-faktura yaratish imkoniyatini blokdan chiqaradi.

Biroq hisobotdagi ma'lumotlarning hech bo'lmaganda bir turdagi ma'lumot kuch monitoringi (force monitoring) tizimidagi ma'lumotlarga mos kelmasa, va soliq to'lovchi hisobot to'g'riligini tasdiqlagan taqdirda ham hisobot qabul qilinishiga qaramasdan EXF yaratish imkoniyati blokdan chiqarilmaydi. Ushbu holatlarda soliq to'lovchi asoslantiruvchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi lozim.

Agar taqdim etilgan hisobotlarda soliq to'lovchilarda soliq solish bilan bog'liq jiddiy noqonuniy xatti-harakatlar, masalan, hisob-fakturalarni noto'g'ri rasmiylashtirish gumoni mavjud bo'lsa, tizim hisobotni ko'rib chiqish uchun Audit departamentiga yuboradi. Audit departamenti tegishli hujjatlar asosida hisobotni tekshirib chiqqandan so'ng "qulfn ochish ma'qullangan" degan tugma bosilganda, tizim soliq to'lovchilar uchun soliq nazorati uskunasi blokdan chiqaradi. Xuddi shunday, QQS o'rnini qoplashda ham raqamli mexanizm joriy qilingan.

Xitoyda QQSni qaytarish tizimining evolyutsiyasini quyidagicha yondashuvlar bilan ifodalash mumkin. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'idagi manfiy farq summasini qoplab berishda birinchi marta 2018-yilda bir martalik QQSni qaytarish mexanizmi jadal rivojlandi. Ilg'or ishlab chiqarish asbob-uskunalari, texnikalarni ishlab chiqaruvchilar, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalari hamda elektr tarmog'i korxonalari uchun QQS summasini bir marta qaytarib olish tizimi joriy etilgan.



Oradan bir yil o'tib, ya'ni 2019-yil 1-apreldan QQSni qaytarish tizimi sanoat korxonalari uchun joriy etildi. Shu yilning 1-iyunidan boshlab, nometall mineral mahsulotlar, umumiy va maxsus texnikalar (asbob-uskunalar), kompyuter, aloqa va boshqa elektron qurilmalarni ishlab chiqaruvchilar uchun har oyda to'liq hajmda QQS o'rnini qoplashga ruxsat berildi. 2021-yil 1-aprelda QQS o'rnini qoplash mumkin bo'lgan beshta yangi sanoat sohalari (tibbiy, kimyoviy tola, temiryo'l, suv osti va kosmik transport uskunolari, elektr mashinalar va asbob-uskunalar) ishlab chiqaruvchilar) qo'shildi. 2022-yil 1-apreldan kichik va mikro korxonalar, ulgurji va chakana savdo korxonalari ham oylik asosda QQSni qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Qo'shilgan qiymat solig'idagi manfiy farq summasini qoplab berish uchun kimlar ariza taqdim eta olishi bo'yicha quyidagicha talablarga javob beriladi:

A yoki B soliq xavfi reytingiga ega bo'lishi;

Qolgan soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'langan soliqlarni firibgarlik yo'li bilan qaytarib olmagan bo'lishi;

Oxirgi 36 oy ichida soliq organi tomonidan ikki marta yoki undan ko'p soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilmagan bo'lishi.

Ariza taqdim etish tartibi va ko'rib chiqish muddatlari beshta bosqichni qamrab oladi. Birinchi qadamda, soliq to'lovchi QQS o'rnini qoplash to'g'risida Elektron soliq byurosi yoki oflayn soliq xizmati ofislari orqali ariza taqdim etadi va arizaning haqiqiyliigi, ishonchliliigi va yaxlitligi uchun javobgar bo'ladi. Ikkinchi qadamda, soliq departamenti ariza kelib tushgan sanadan keyin o'n kun ichida arizani belgilangan tartibda ko'rib chiqadi va QQSni qaytarish yoki arizani rad etish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Uchinchi qadamda, soliq departamenti QQSni qaytarish to'g'risida sertifikatni soliq to'lovchiga taqdim etadi va uning nusxasini Xitoy Xalq Bankining G'azna departamentiga yuboradi. To'rtinchi qadamda, g'azna departamenti sertifikatni qabul qilib, soliq to'lovchining bank hisob raqamiga mablag'ni qaytaradi.

Xitoy Xalq Respublikasida QQS stavkalari turlicha bo'lib, har bir yo'nalish uchun quyidagicha belgilangan:

Umumbelgilangan QQS to'lovchilar (yillik tovar aylanmasi 5 mln. yuandan yuqori) uchun bazaviy stavka – 13%;

Ayrim tovarlar savdosi (masalan, ko'chmas mulk) uchun – 9%;

Transport va dizayn xizmatlari uchun – 6%;

Tegishli litsenziyasiz tibbiy jarrohlik xizmati uchun – 6%;

Kichik QQS to'lovchilar uchun 2023-yildan boshlab – 1% (oldingi stavka – 3%). *Kichik QQS to'lovchilarda hisobga olish huquqi mavjud emas.* (1-jadval)

1-jadval. Xitoy Xalq Respublikasining 2014-2023-yillar davomidagi soliq tushumlari va unda qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi hamda dinamikasi³.

Yillar kesimida	QQS tushumi (trln. yuan)	O'sish dinamikasi (%)	Jami soliqlar tushumlari (trln. yuan)	O'sish dinamikasi (%)	QQS ulushi (%)
2014	2.88	9.1	11.05	9.9	26.1
2015	3.09	1.7	11.91	7.8	25.9
2016	3.11	0.8	12.49	4.8	24.9
2017	4.07	30.9	13.04	4.4	31.2
2018	5.64	38.5	14.44	10.7	39.1
2019	6.15	9.1	15.64	8.3	39.3
2020	6.23	1.3	15.8	1	39.5
2021	5.68	-8.9	15.43	-2.3	36.8
2022	6.35	11.8	17.27	11.9	36.8
2023	4.87	-23.3	16.66	-3.5	29.2

Ma'lumot uchun 2023-yilda 1 yuan = 1587 so'm, 1 AQSh dollari = 7 yuan

Xorij tajribasini o'rganish bilan bir qatorda, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirishga qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar keltirilgan. Iqtisodiy jihatdan korxonalarda


3 Muallif tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi to'g'risidagi rasmiy manba ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



xufiyona iqtisodni qisqartirishga, ular to'layotgan soliq yuki va jamiyatda ishbilarmonlik muhitining rivojlanganligi ham ahamiyat kasb etadi. QQS stavkasining pasaytirilishi iqtisodiy sektorda "soya"da turgan korxonalarni qonuniylashtirishga olib keladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlillariga ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasining 15 foizdan 12 foizgacha pasayishi O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, ammo 2023-yil yanvar oyidagi anomal sovuq sabab yuzaga kelgan ob-havo tufayli bu o'zgarishlar u qadar sezilmadi.

2023-yil yanvar oyidan boshlab respublikamizning ishbilarmonlik muhiti indeksi "Trading Economics" xalqaro iqtisodiy portalida vaqti-vaqti bilan e'lon qilinmoqda. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil fevralida ishbilarmonlik muhitining jamlangan ko'rsatkichi 4 punktga o'sib, 58 punktga yetgan. Bu mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti holatini ijobiy deb baholashga asos bo'ladi.(2-rasm)



2-rasm. Xufiyona sektor ulushini kamayishi hisobiga ishbilarmonlik muhitini o'zgarish dinamikasi⁴(2020-2023-yillar foizda).

Kompozit ko'rsatkichning o'sishiga qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasidagi dinamika sezilarli ta'sir ko'rsatdi. So'nggi yillarda O'zbekistonda biznesni liberallashtirish bo'yicha rejali davlat siyosati yo'lga qo'yilgan. Xususan, biznesni boshlash va uni yuritish jarayonlari soddalashtirilgan, ma'muriy to'siqlar bartaraf etilgan, soliqqa tortish tizimida yangiliklar amalga oshirilgan. Shuningdek, tumanlar joylashuviga qarab 5 toifaga bo'lingan holda, biznes uchun imtiyozlar va subsidiyalar berishning yangi mexanizmi joriy qilingan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda biznesni tartibga solish tizimini sezilarli darajada o'zgartiradi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga yordam beradi, xususi sektor rivojlanishini rag'batlantiradi. Ayniqsa, soliqqa tortish tizimidagi yangiliklar natijasida mamlakatda xufiyona iqtisodiyotdan kelib chiqadigan zarar qisqarib, ishbilarmonlik muhitining faollashishi va o'sishiga erishilgan.

Ma'lumot uchun, joriy yilning fevral oyida soliq to'lovchilar birinchi marta soliq organlariga QQS bo'yicha soliq hisobotlarini 12 foiz miqdorida taqdim etdilar. Yanvar oyida hisobotlar 2022-yil dekabr oyi uchun taqdim etilgan bo'lib, unda 15 foiz stavka amal qilgan edi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, biznesning hozirgi holatini "yaxshi" deb baholagan soliq to'lovchilar 41 foizni tashkil etgan bo'lsa, 14 foiz uni "yomon" deb baholagan. Korxonalarning 20 foizi o'z xodimlari sonini oshirgan, 40 foizi esa o'z tovar va xizmatlariga bo'lgan talabning oshganini qayd etgan. Bir oy davomida biznesning joriy holati ko'rsatkichi 3 punktga oshib, 37 punktni tashkil

4 Muallif tomonidan "Trading Economics" xalqaro iqtisodiy portal ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



etgan, bu qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi yaxshilanishlar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, qurilish sohasidagi hozirgi holat ko'rsatkichida pasayish kuzatilgan.

Keyingi 3 oy ichida biznesni rivojlantirish istiqbollarini kutish ko'rsatkichi yuqori darajada qolmoqda – 80 ball, bu barcha tarmoqlarda yuqori optimizm bilan qo'llab-quvvatlanadi. Fevral oyida qurilish sohasida kutish ko'rsatkichida sezilarli sakrash qayd etildi. Keyingi 3 oy ichida o'z biznes holati yaxshilanishini kutayotgan tadbirkorlarning ulushi 82 foizni tashkil etdi, tovar va xizmatlarga talabning yanada oshishini 75 foiz tadbirkor kutmoqda, 68 foiz esa xodimlar sonini ko'paytirishni rejalashtirgan. Tadbirkorlarning 26 foizi keyingi 3 oy ichida o'z tovar va xizmatlari narxining oshishini kutmoqda.

Umuman olganda, joriy holat ko'rsatkichlari va kutilayotgan taxminlar o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiyotning rivojlanishidagi ijobiy tendensiyaning keyingi 3 oy ichida davom etishini anglatadi.

2022–2023-yillarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari natijasida tadbirkorlarning 49 foizi o'z faoliyatida to'siqlarga duch kelganligini bildirgan. Moliyalashtirish va yer uchastkalaridan foydalanishdagi to'siqlar, soliq ma'muriyatchiligi va soliq stavkalari bilan bog'liq muammolar, shuningdek, elektr va gaz ta'minotidagi uzilishlar qayd etilgan.

Biznes yuritishda turli to'siqlarning kamayishi ko'rsatkichlarni yaxshilash omili bo'lishi mumkin. Masalan, oy davomida hech qanday to'siqlar yo'qligini qayd etgan respondentlar ulushi 1 foizga oshdi. Sanoat sektorida moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarga duch kelgan tadbirkorlar ulushi 2 foizga kamaydi, yuqori soliq stavkalari bo'yicha shikoyatlar esa yana 6 foizga qisqardi. Sanoat sektoridagi yangi yer uchastkalaridan foydalanishdagi qiyinchiliklar va gaz ta'minoti muammolari ulushi deyarli o'zgarishsiz qoldi. Qishloq xo'jaligi vakillari suv ta'minoti (-4%) va yuqori soliq stavkalari muammolarini (-3%) kamroq tilga olishgan.

Qurilish sektorida soliq ma'muriyatchiligi muammolari bo'yicha shikoyatlar soni 3 foizga kamaygan, gaz ta'minoti bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelganlar ulushi esa yana 4 foizga qisqargan. Xizmat ko'rsatish sektorida elektr va gaz ta'minoti bilan bog'liq muammolar mos ravishda 8 va 3 foizga sezilarli darajada kamaydi. Shunga qaramay, jamiyatda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish uchun qadam-baqadam tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, yuqoridagilarga asoslanib, shuni ta'kidlash kerakki, bizning asosiy maqsadimiz xufiyona iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotimizdagi ulushini keskin qisqartirish va uning yuzaga kelishini oldini olishdir. Bizning tadqiqot doirasida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish, qo'shilgan qiymat solig'i tizimini soddalashtirish, soliq yukining tengligini ta'minlash, raqobat muhitini yaxshilash, bozorlarni erkinlashtirish va budjet shaffofligini ta'minlash, shuningdek, xabardorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Taklifimiz qo'shilgan qiymat solig'i tizimini raqamlashtirish orqali shunday tartib-taomillarni yaratishdirki, bunda soliq to'lovchilar xufiyona faoliyatdan olingan daromaddan ko'ra intizomli soliq to'lovchi sifatida faoliyat yuritish orqali davlat va jamiyat oldida ko'proq preferensiyalarga ega bo'lishlari, kelgusidagi faoliyatlariga qo'shimcha manbalar keltirish imkoniyatiga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – soliq to'lovchilarga sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali ularda davlatga nisbatan minnatdorlik hissini uyg'otuvchi ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yil ichida mamlakatlar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda naqd puldan foydalanishni kamaytirishga qaratilgan raqamli to'lov tizimini takomillashtirish va kengaytirish orqali muvaffaqiyatga erishgan. Shu sababli, ushbu tizimni O'zbekiston Respublikasida takomillashtirish yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli⁵ Farmoni bilan tashkil etilgan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha maxsus komissiyaning asosiy vazifalaridan biri naqdsiz to'lovlarni kengaytirish choralari ko'rish deb belgilangan.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot mavjud bo'lib, hozirgacha uni butkul yo'q qilishga hech bir davlat erishmagan. Biroq ko'plab davlatlarda bunday iqtisodiyotning ulushi va ta'siri minimal darajada kamaytirilgan. Bu borada Yevropa davlatlari tajribasi misol bo'la oladi. Aksariyat Yevropa davlatlari yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashda soliq mexanizmlariga alohida e'tibor qaratgan. Sababi, aynan soliqlarning yuqori darajasi ko'pincha yashirin iqtisodiyotning kengayishiga turtki beradigan omillardan biridir. (2-jadval).

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmon



2-jadval. Xorijiy davlatlarda to'lovlari elektronlashtirishning 5-yil mobaynidagi iqtisodiyotdagi xufiyona sektorni qisqartirilishiga ta'siri (2017-2021-yillar uchun)⁶.

Davlatlar	Yashirin iqtisodiyotdagi ulushi (2016-2021-yillarda foizda)	Yashirin iqtisodiyotdagi ulushining o'zgarishi (foizda)		YalM da o'zgarish (mlrd dollar)		Soliq tushumlaridagi o'zgarish (mlrd dollar)	
		Quyi chegara	Yuqori chegara	Quyi chegara	Yuqori chegara	Quyi chegara	Yuqori chegara
Braziliya	36,5	-1,2	-1,4	14,8	17,7	8,4	10,1
Xitoy	14,5	-0,6	-0,7	49,7	59,6	28,8	34,6
Hindiston	23,3	-2,8	-3,5	46,4	58,8	18,1	23,1
Italiya	19,5	-0,9	-1,1	12,0	14,4	9,3	11,2
Keniya	33,7	-2,1	-2,5	1,1	1,3	0,9	1,1
Nigeriya	53,4	-9,3	-13,3	13,2	19,7	4,1	6,3
Polsha	17,4	-0,5	-0,6	1,1	1,3	0,9	1,1

Xorijiy mamlakatlarda elektron to'lov tizimini rivojlantirishda keshbek berilishi eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu asosan QQS bo'yicha imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Masalan, Janubiy Koreya ushbu tizimni rivojlantirish maqsadida debit va kredit kartalar uchun soliq imtiyozlarini joriy qilishga doir turli qarorlarni qabul qildi. Natijada, o'n yil davomida kartochkalar bo'yicha tranzaksiyalar hajmi 15 foizdan 65 foizgacha oshdi.

Shu bilan birga, QQS bo'yicha imtiyozlar berish tizimi Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham keng tarqalmoqda. Masalan, Urugvayda debit kartalar uchun 4 foiz va kredit kartalar uchun 2 foiz miqdoridagi imtiyozlar joriy qilinishi elektron to'lov tizimini 42 foizga oshirdi. Bu esa, o'z navbatida, debit karta tranzaksiyalarini 2016-yilda 65 foizga, 2017-yilda esa 78 foizga oshirdi.

Dunyo mamlakatlarida iste'molchilar tomonidan plastik kartochkalar orqali tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlardan olinadigan aylanmaning 0,5 foizi miqdorida soliq manbalari hisobidan keshbek berish tizimini joriy qilish tajribasi mavjud.

Bundan tashqari, elektron tizim orqali to'lovlarni amalga oshirishda QQS bo'yicha imtiyozlar berilishi 2017–2021-yillarda Nigeriyada yashirin iqtisodiyot ulushining 9,3 foizdan 13,3 foizgacha, Hindistonda esa 2,8 foizdan 3,5 foizgacha qisqarishiga sabab bo'ldi. Braziliyada yashirin iqtisodiyot ulushi 1,2 foizdan 1,4 foizgacha qisqarib, bu o'z navbatida YalMning qo'shimcha 17,7 milliard dollarga o'sishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, naqd pulsiz to'lov tizimlarini rivojlantirish maqsadida hisob-kitoblarni naqdsiz va elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirganda QQS stavkasini pasaytirish orqali xaridorlar va sotuvchilarga keshbek hamda bonuslar shaklida imtiyozlar berish taklif etiladi. Masalan, QQS stavkasi 12 foiz bo'lsa, keshbek yoki bonus sifatida uni 8 foizga tushirish mumkin. Shuningdek, beriladigan keshbek va bonuslar hajmini oshirish (masalan, QQS hisobiga 1 foiz o'rniga 3 foiz keshbek taqdim etish) iste'molchilarning iqtisod qilish motivatsiyasini oshirib, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, iste'molchilarning keshbeklarni qaytarib olish jarayonini qulaylashtirish zarur. Masalan, elektron to'lovlardan foydalanganda, 3 foizlik keshbek evaziga iste'molchi hisob raqamidan 100 ming so'm yechib olinishi o'rniga 97 ming so'm yechib olinishi ko'zda tutilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda soliq va ma'muriy javobgarlik sohasini qisqartirish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish hamda ularni soddalashtirish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimini va tamoyillarini, soliq to'lovlarning amalga oshirilishini hisobga olish jarayonini imkon qadar soddalashtirish

6 2021 AT Kearney and VISA: Digital payments and the global informal economy, page: 32



xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'g'ri ishlash mexanizmini shakllantiradi va soliqlardan qochish holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Milliy iqtisodiyotimizni xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish va mahalliy mahsulotlar ulushida eksport hajmini ko'paytirishda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Mahsulotlar tannaxini pasaytirish va iste'mol tovarlari o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida soliq to'lovchilarga adolatli tamoyillar asosida ish ko'rish imkonini yaratish muhimdir.

Agar bir turdagi iste'mol tovariga imtiyoz qo'llanilsa, uning tarkibiga kiruvchi barcha mahsulotlarga ham imtiyozlar qo'llanilishi kerak. Bu esa jamiyatda berilgan imtiyozlarning samarali amalga oshirilishiga va iste'mol tovarlari narxlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sabine Freizer. "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat." -World Bank.: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/542691624154434845/text/Uzbekistan-Tax-Administration-Reform-Project.txt>
2. Тигран Погосян, Евгения Коломак. "Фискальная политика и региональное экономическое развитие: опыт России." URL: https://www.files.ethz.ch/isn/139068/643172_sa231.pdf
3. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. "Qo'shilgan qiymat solig'ining hukumat hajmi va qurilish investitsiyalariga ta'siri." // Procedia Economics and Finance. Volume 36, 2016. Pages 336-344.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2020. – 640 b.
5. Морис Лоре. "Налоги и налогообложение: Учебник для вузов." 4-е изд. – И.Д. Питер, 1958. – 429 с.
6. Павлова Е.В., Дорожко Д.А. "Безработица как социально-экономическое явление в современной экономике. Проблемы безработицы в Российской Федерации и меры по её снижению." // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Экономика и управление. – № 3 (18), 2014. – С. 29–31.
7. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. "Современный экономический словарь." – М.: ИНФРА-М, 2008. – 512 с.
8. Романовский М.В., Врубелевская О.В. "Налоги и налогообложение: налог на добавленную стоимость." – СПб.: Питер, 2008. – 576 с.
9. Романовский М.В., Врубелевская О.В. "Налоги и налогообложение: учебник." 6-е изд. – СПб.: Питер, 2007. – 491 с.
10. Toshmatov Sh.A. "Qo'shilgan qiymat solig'i: Monografiya." – Toshkent: Moliya, 2012. – 160 b.
11. Zavolishina I. "Soliqlar: nazariya va amaliyot." – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. – 539 b.
12. Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong. "The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform." // China Economic Review. Volume 54, April 2019. Pages 135-146.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-sonli qarori. "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>